



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 20-sentabr

466-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2024-yil 17-sentyabrda “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida 2024-2030-yillarda davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 30-avgustdagi PQ–308-son qarori ijrosi haqida”gi 427-6-0-Q/24-sonli qarori haqida

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasiga binoan davlat-xususiy sheriklik loyihalariga 2030-yilga qadar kamida 30 mlrd. AQSh dollari miqdorida xususiy investitsiyalarni jalb qilish maqsadli ko‘rsatkichini ta‘minlash, hududlarda yuqori iqtisodiy o‘shish uchun hududlarda zarur bo‘lgan ijtimoiy va iqtisodiy infratuzilmani rivojlantirish, elektr energiyasini ishlab chiqarishda davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirishdagi muvaffaqiyatli tajribani boshqa sohalarga tatbiq etish hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida 2024-2030-yillarda davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 30-avgustdagi PQ–308-son hamda Namangan viloyati hokimining 2024-yil 17-sentyabrdagi 427-6-0-Q/24-sonli qarorlari ijrosini ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyati hokimining 2024-yil 17-sentyabrdagi 427-6-0-Q/24-sonli qarori rahbarlik va amalda ijrosini ta‘minlash uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-avgustdagi PQ–308-son qarori bilan:
Quyidagilar:

2024-2026-yillarda ustuvor davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar 1-ilovaga muvofiq;

2024-2030-yillarda davlat-xususiy sheriklik asosida amalga oshiriladigan loyihalar dasturi (keyingi o‘rinlarda — Dastur) 2-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

bunda:

yirik shaharlar o‘rtasida qulay va tezkor avtomobil qatnovi uchun qo‘shimcha sharoitlar yaratish maqsadida kamida 1 000 km zamonaviy pullik magistral avtomobil yo‘llarini qurish va modernizatsiya qilish, shu jumladan Toshkent — Samarqand yo‘lini qurish ishlarini 2024-yilda hamda Toshkent — Andijon yo‘lini 2026-yilda boshlash;

yillik energiya yo‘qotishlarini kamida ikki baravar pasaytirishni belgilagan holda barcha hududlarda elektr taqsimlash tarmoqlarini 2027-yil 1-iyulga qadar, tabiiy gaz taqsimlash tarmoqlarini esa 2027-yil yakuniga qadar xususiy operatorlarga topshirishni nazarda tutuvchi shartnomalarni imzolash;

yiliga qo‘shimcha 30 foizgacha elektr energiyasini tejash maqsadida 2028-yilga qadar barcha ma‘nan eskirgan irrigatsiya nasos stansiyalarini modernizatsiya qilish bo‘yicha kelishuvlarga erishish;

toza va doimiy ichimlik suvi bilan ta‘minlash qamrovini 87 foizga, markazlashgan oqova suv ta‘minoti qamrov darajasini 30 foizgacha oshirishni nazarda tutgan holda 2028-yil yakuniga qadar har bir hududda ichimlik va oqova suv tarmoqlarini modernizatsiya qilish va boshqaruvga berish uchun xususiy kompaniyalarni jalb qilish;

400 mingdan ortiq o'quvchilar sig'imiga ega zamonaviy ta'lim muassasalari hamda 300 mingdan ortiq tarbiyalanuvchilar sig'imiga ega maktabgacha ta'lim muassasalarini tashkil qilish maqsadida 2026-yildan boshlab davlat-xususiy sheriklik (keyingi o'rinlarda — DXSh) tamoyillari asosida har yili kamida 100 ta maktab va 100 ta maktabgacha ta'lim muassasalarini qurish va boshqarishni tashkil etish;

ilg'or texnologiyalarga asoslangan tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida 100 mingdan ortiq bemorlarga xizmat ko'rsatuvchi ko'p tarmoqli shifoxonalarni qurish va ularni xususiy operatorlar boshqaruviga berish lozimligi;

belgilanishicha, vazirlik, idora va mahalliy davlat hokimiyati organlarining birinchi rahbarlari belgilangan maqsadli ko'rsatkichlar va vazifalarni to'liq, sifatli va o'z vaqtida amalga oshirish hamda salohiyatli investorlarni jalb qilish uchun shaxsan javobgar hisoblanishi e'tiborga olinsin.

3. Tuman hokimining qurilish, to'siqlarsiz muhit yaratish, kommunikatsiyalar, kommunal xo'jalik, ekologiya va ko'kalamzorlashtirish masalalari bo'yicha o'rinbosari X.Boylarov Dastur loyihalariga xalqaro moliya institutlari talabini inobatga olgan holda, Maktabgacha va maktab ta'lim bo'limi so'rovi asosida yer maydonlarini ajratish uchun shaxsan mas'ul etib belgilansin;

Dastur doirasidagi DXSh loyihalarining sifatli amalga oshirilishi, amaliyotga tatbiq etilishi hamda atrof-muhit va ijtimoiy xavfsizlik standartlariga muvofiqligini eng yaxshi xalqaro amaliyotlar asosida tashkil etsin;

Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan birgalikda 2024-yil 1-noyabrga qadar 2024-2030-yillarda DXSh asosida amalga oshiriladigan loyihalar dasturiga kiritilgan har bir DXSh loyihasi bo'yicha ularni amalga oshirishning kompleks tarmoq jadvallarini ishlab chiqib, viloyat hokimligiga kiritisin;

Iqtisodiyot va moliya bo'limi (Z.Jurbayev), Tibbiyot birlashmasi (O.Qo'ldoshev), Madaniyat bo'limi (R.Xoliqova) Sport maktabi (M.Abdugodirov) bilan birgalikda 2024-yil yakuniga qadar samarasiz foydalanib kelinayotgan shifoxonalar, madaniyat va sport inshootlarini (shu jumladan, madaniyat saroylari, stadionlar, konsert zallari, istirohat bog'lari) xatlovdan o'tkazib, xususiy sektorga DXSh asosida o'tkazish bo'yicha takliflarni viloyat hokimligiga kiritisin.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari A.Abdusalomov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



A.Mansurov